

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**O'ZDJU rektori**

**I.Tuxtasinov**

**2026 yil**

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga kiruvchilar uchun**

**10.00.11 –**

**Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligidan**

**DASTUR**

**Toshkent – 2026**

10.00.11 – Til nazariyasi, Amaliy va kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Ingliz tili nazariy aspektlari №1" kafedrası majlisida muhokama qilindi va \_\_\_\_\_ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

**Tuzuvchilar:**

f.f.d. O'zDJTU professori Yuldashev Akmal Gulamjonovich  
f.f.d. O'zDJTU professori Teshaboyeva Dilfuza Muminova  
f.f.d. O'zDJTU professori Yoqubov Jamoliddin Abduvaliyevich  
f.f.d. O'zDJTU professori Ergasheva Guli Ismoil qizi

**Taqrizchilar:**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Normurodova Nozliya  
Zarilovna

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,** Kuldashev Akramjon  
professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi istiqbolli rivojlanishining yangi bosqichida madaniyat, san'at va fan sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yilning 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida «...ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozimligi, har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart» ekanligi ta'kidlandi. Bu esa xorijiy tillarni o'rgatish tizimini rivojlantirish va ularning ma'naviy dunyosini boyitishga yo'naltirishni talab etadi.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo'qdir. Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish bilan birga ona tilini ham esdan chiqarmaslik lozim. O'z fikrini mutlaqo mustaqil, chet tili va ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun dastur tuzish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Chet tillari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lgan va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishda dasturlarning ahamiyati kattadir. Mamlakatimiz ravnaqi, ta'lim sohasi taraqqiyoti va chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda tilshunoslikning ham o'z maqsadi va vazifalari bor. Zotan, til azaldan xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab-yashnashida tilshunoslikning alohida o'rni bor.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilarning bilim darajasini sinashda ushbu dastur muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur dastur tilshunoslik nazariyasi mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun mo'ljallangan. Unda tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo'nalishlar, nazariy ta'limotlar, lingvistik maktablar va lingvistik konsepsiyalarga bag'ishlangan masalalar yoritilgan.

### **Imtihon savollarining tuzilishi:**

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mo'ljallangan imtihon savollariga tilshunoslik tarixi; til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi; tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va ilmiy tadqiqot ishi bo'yicha suhbat kabi masalalarni qamrab oladi.

### **Kirish imtihonining asosiy talablari**

- Dunyo tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini va tilshunoslik metodlarini bilishi;
- Til tarixi va nazariyasi to'g'risida keng bilimni egallay olish, tillar o'rtasidagi farqlarni ajrata olish, tilshunoslik muammolarini tushuna olish malakasiga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi
- Ilmiy faoliyat yuritishda nazariy bilimlarni qo'llash, tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtayi nazardan qarash, dunyo tilshunosligida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazardan tahlil qilish, lingvistik tadqiqot metodlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

### **IMTIHONGA TAYYORGARLIK KO'RISH VAQTI**

*Umumiy vaqt – 30 daqiqa*

1-savol uchun – 10 daqiqa

2-savol uchun – 10 daqiqa

3-savol uchun – 10 daqiqa

### **IMTIHON TOPSHIRUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI**

**Maksimal ball - 100 b.**

| <b>Baxo</b>       | <b>Ball</b> | <b>Izoh</b>                                                                                                               |
|-------------------|-------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>A'lo</b>       | 90-100      | Ballar har bir savol uchun alohida qo'yiladi va oxirida umumlashtiriladi. 1-2 savol uchun 35 ball. 3-savol uchun 30 ball. |
| <b>Yaxshi</b>     | 70-89       |                                                                                                                           |
| <b>Qoniqarli</b>  | 60-69       |                                                                                                                           |
| <b>Qoniqarsiz</b> | 0-59        |                                                                                                                           |

| 5 баҳолик<br>шкала | 100<br>баллик<br>шкала | 5 баҳолик<br>шкала | 100<br>баллик<br>шкала | 5 баҳолик<br>шкала | 100<br>баллик<br>шкала |
|--------------------|------------------------|--------------------|------------------------|--------------------|------------------------|
| 5,00-4,96          | 100                    | 4,30-4,26          | 86                     | 3,60-3,56          | 72                     |
| 4,95-4,91          | 99                     | 4,25-4,21          | 85                     | 3,55-3,51          | 71                     |
| 4,90-4,86          | 98                     | 4,20-4,16          | 84                     | 3,50-3,46          | 70                     |
| 4,85-4,81          | 97                     | 4,15-4,11          | 83                     | 3,45-3,41          | 69                     |
| 4,80-4,76          | 96                     | 4,10-4,06          | 82                     | 3,40-3,36          | 68                     |
| 4,75-4,71          | 95                     | 4,05-4,01          | 81                     | 3,35-3,31          | 67                     |
| 4,70-4,66          | 94                     | 4,00-3,96          | 80                     | 3,30-3,26          | 66                     |
| 4,65-4,61          | 93                     | 3,95-3,91          | 79                     | 3,25-3,21          | 65                     |
| 4,60-4,56          | 92                     | 3,90-3,86          | 78                     | 3,20-3,16          | 64                     |
| 4,55-4,51          | 91                     | 3,85-3,81          | 77                     | 3,15-3,11          | 63                     |
| 4,50-4,46          | 90                     | 3,80-3,76          | 76                     | 3,10-3,06          | 62                     |
| 4,45-4,41          | 89                     | 3,75-3,71          | 75                     | 3,05-3,01          | 61                     |
| 4,40-4,36          | 88                     | 3,70-3,66          | 74                     | 3,00               | 60                     |
| 4,35-4,31          | 87                     | 3,65-3,61          | 73                     | 3,0 дан кам        | 60 дан кам             |

1-savol – 35 b.

| Baho       | Ball  | Baholash mezonlari                                                                                                                |
|------------|-------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A'lo       | 30-35 | Tilshunoslik sohasidagi zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblarni ilmiy dalillar bilan isbotlash.            |
| Yaxshi     | 25-29 | Til nazariyasi ixtisosligi bo'yicha zamonaviy qarash va yondashuvlarni to'liq bilish va javoblarni ba'zi ilmiy dalillar asoslash. |
| O'rta      | 19-24 | Til nazariyasi ixtisosligi sohasidagi ayrim zamonaviy qarashlarni bilish.                                                         |
| Qoniqarsiz | 0-18  | Savol bo'yicha hech qanday axborotga ega emas.                                                                                    |

2-savol – 35 b.

| Baho   | Ball  | Baholash mezonlari                                                                                                    |
|--------|-------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A'lo   | 30-35 | Nazariy bilimiga tayangan holda, til nazariyasining metodologiyasini yuqori darajada nazariy va amaliy egallaganligi. |
| Yaxshi | 25-29 | Til nazariyasi ixtisosligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ob'yektini yaxshi tushunishi.                   |

|                   |       |                                                                               |
|-------------------|-------|-------------------------------------------------------------------------------|
| <b>O'rta</b>      | 19-24 | Mavzu bo'yicha faqat nazariy yoki faqat amaliy kasbiy malakani egallaganligi. |
| <b>Qoniqarsiz</b> | 0-18  | Savol bo'yicha nazariy bilim va amaliy tajribaga ega emasligi.                |

**3-savol – 30 b.**

| <b>Baho</b>       | <b>Ball</b> | <b>Baholash mezonlari</b>                                                                                                                                         |
|-------------------|-------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>A'lo</b>       | 27-30       | Tanlagan ixtisoslik bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lishi va qo'shimcha savollarga javob bera olishi.                                                          |
| <b>Yaxshi</b>     | 22-26       | Bajarilgan ilmiy-tadqiqoti bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, uning dolzarbligi, yangiligi, erishilgan natijalari, tavsiya va xulosalarini yaxshi taqdim eta olish. |
| <b>O'rta</b>      | 17-21       | Ilmiy ixtisoslikni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaslik uning mohiyatini ochib bera olmaslik.                                                                  |
| <b>Qoniqarsiz</b> | 0-16        | Ilmiy-tadqiqot bo'yicha ma'lumot bera olmaslik.                                                                                                                   |

## **DASTURNING MAZMUNI**

### **Tilshunoslik tarixi**

Qadimgi Hindiston tilshunosligi. Qadimgi Yunon tilshunosligi: falsafiy va grammatik davr. Qadimgi Rim tilshunosligi. Xitoy tilshunosligi tarixi. O'rta asrlar tilshunosligi. Arab tilshunosligi tarixi. O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi. O'zbek tilshunosligi tarixi.

### **Lingvistik ta'limotlar tarixi**

Tilning paydo bo'lishi haqidagi ta'limotlar. Yozuvning paydo bo'lishi haqidagi ta'limotlar. Realizm ta'limoti. Nominalizm ta'limoti. Konseptualizm ta'limoti. A.Shleyxer ta'limoti: naturalizm. G. Shteyntal ta'limoti: psixologizm. Til va tafakkur. A.Potebnya ta'limoti. V. fon Gumboldt ta'limoti. Lingvistik antinomiya. Nazariy tilshunoslik. F. de Sossyur ta'limoti. Sotsiologizm. Strukturalizm maktabi ta'limotlari. Praga funksional maktabi: V.Matezius ta'limoti. Amerika deskriptiv maktabi: F.Boas ta'limoti. Kopengagen glossematika maktabi: L.Yelmslev ta'limoti. Til va nutq dixotomiyasi.

### **Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik**

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari. Tillar tasnifi: areal, funksional, morfologik va genealogik tasniflar. Qiyosiy-tarixiy metod. F.Bopp ta'limoti. R.Rask ta'limoti. Y.Grimm ta'limoti. A.Vostokov ta'limoti. Moskva lingvistik maktabi: F.F.Fortunatov ta'limoti. Qozon lingvistik maktabi: I.A. Boduen de Kurtene ta'limoti. Peterburg lingvistik maktabi. Yosh grammatikachilar maktabi.

### **Lingvistik tadqiqot metodlari**

Diaxron tadqiqot metodlari: tavsifiy metod, qiyosiy-tarixiy metod, chog'ishtirish metodi, tipologik metod. Sinxron tadqiqot metodlari: distributiv tahlil metodi, statistik tahlil metodi, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi, transformatsion tahlil metodi, komponent tahlil metodi, valentlik tahlil metodi, eksperimental-fonetik tahlil metodi, avtomatik tahlil metodi.

### **Tillar tipologiyasi**

Qiyosiy tipologiya, genetik tipologiya. Tillarning fonetik-fonologik tipologiyasi. Tillarning leksik tipologiyasi. Tillarning morfologik tipologiyasi. Tillarning sintaktik tipologiyasi. Universaliya tushunchasi.

### **Tilshunoslik sohalati**

Fonetika: fonetika va fonologiya haqida ma'lumot, fonema va allofonlar, unli va undoshlar tasnifi. Grammatika: Morfologiya va sintaksisning tekshiruv obyekti, grammatik ma'no tushunchasi, morfemaning turlari. Grammarik kategoriya. Leksikologiya: Leksikologiya bo'limlari semasiologiya, leksikografiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya, leksik ma'no tushunchasi. Sinonim, antonim, omonim. Stilistika: stilistik yo'nalishlar (fonostilistika, leksik stilistika,

sintaktik stilistika, funktsional stilistika, badiiy matn stilistikasi). funktsional uslub tushunchasi va turlari.

### **Kompyuter va korpus lingvistikasi**

Kompyuter lingvistikasining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi. Kompyuter lingvistikasining muammolari va asosiy tushunchalari. Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalari. Tilshunoslikda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy asoslari. Kompyuter lingvistikasida modellashirish. Lingvistik modellar. Lingvistik manbalar. Tezauruslar va ontologiyalar. An'anaviy axborot-qidiruv tezaurisini ishlab chiqish, yaratish va ulardan foydalanishning asosiy tamoyillari. Tezaurilarga misollar: WordNet, RuTez. Tilshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot olib borish va amaliy faoliyatda kompyuterdan foydalanish xususiyatlari. "Sun'iy intellekt" tushunchasi. Korpus lingvistikasining nazariy asoslari. Korpus lingvistikasining shakllanish tarixi va bosqichlari. Korpus lingvistikasining asosiy tushunchalari. Korpuslarning tasnifi: turli yondashuvlar. Korpus turlari. Dunyo tillarining korpuslari. Korpus lingvistikasida turli texnologiyalar. Korpus lingvistikasining qo'llanish doirasi. Ingliz tilidagi korpuslarning yaratilish tarixi va tipologiyasi. Korpus asosida lingvistik tadqiqot olib borish. Korpuslarni yaratish tamoyillari. O'zbek tilining korpusi. Fonetik va fonologik tadqiqotlarida korpus materiallaridan foydalanish usullari. Korpus leksikologiyasi va leksikografiyasi. Matnni tadqiq qilishda korpus materiallaridan foydalanish usullari.

### **Matn lingvistikasi**

Matn lingvistikasi fanining maqsadi va asosiy tushunchalari. Matn tushunchasi va uning xususiyiyatlari. Matn lingvistikasining asosiy yo'nalishlari. Matn grammatikasi. Matn semantikasi. Matn stilistikasi. Matn tipologiyasi mezonlari va matn turlari. Matn kategoriyalari: yaxlitlik, kogeziya, informativlik (axborot), modallik. Matn arxitektonikasi va kompozitsiyasi. Matnda tema va rema munosabati. Matnda axborot tushunchasi va axborot turlari. Badiiy matn va uning kategoriyalari. Matnning kommunikativ mohiyati. Matnning pragmatik jihatlari. Matnning kognitiv aspekti. Matnning lingvomadaniy aspekti. Matnni tahlil qilish metodlar. Diskurs tushunchasi. Diskurs va matn o'zaro munosabati. Diskurs turlari.

### **Kognitiv tilshunoslik**

Ilmiy paradigma tushunchasi. Tilshunoslik tarixidagi paradigmalar siljishi. Antropotsentrik paradigma va uning xususiyiyatlari. Kognitiv lingvistika fanining maqsadi va vazifalari. Kognitiv lingvistika yo'nalishlari. Kognitiv semantika. Kognitiv grammatika. Kognitiv stilistika. Kontseptualizatsiya tushunchasi. Kategorizatsiya tushunchasi va undagi nazariyalar. Prototiplar nazariyasi. Bilim tuzilmasi tushunchasi va uning turlari. Bilim tuzilmalarning verballashuvi. Freym nazariyasi va freym strukturasi. Konseptual metafora nazariyasi. Konseptual integratsiya nazariyasi. Konsept kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida.

Konsept tuzilishi, uning turlari va strukturasi. Kognitiv tilshunoslikda tahlil metodlari.

### **Lingvokulturologiya**

Tilshunoslikda "paradigma" tushunchasi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik turlari. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va psixolingvistika bilan chambarchas bog'liqligi. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati. Til va madaniyat. Fanda "til-инсон-madaniyat" masalasining o'rganilishi: V. fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, L. Vaysberger, A.Potebnya til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi haqidagi qarashlari. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo'lish usullari. Olamning lisoniy manzarasi. Olamning konseptual manzarasi. Lingvomadaniy birliklarning tahlili. Lingvokulturema tushunchasi va uning turlari. Madaniy belgilangan til birliklari. Madaniy qadriyat tushunchasi va uning turlari. Madaniy kod tushunchasi va uning turlari.

### **Pragmalingvistika**

Lingvopragmatika zamonaviy lingvistik yo'nalish sifatida. Lingvopragmatika fanining maqsadi, o'rganish obyekti va vazifalari. Nutqiy akt nazariyasi (Austin J. Searle J.). Nutqiy aktlar tasnifiga yondashuvlar. Nutqiy akt turlari: lokutiv, illokutiv, perlokutiv, performativ va boshqalar. G.Graysning kooperativ tamoyillari. Xushmuomalalik tamoyili (J. Lich). Xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari (saxovat maximasi, rozilik maximasi, kamtarlik maximasi va hk.). Ijobiy va salbiy hushmuomalalik. Implikatura nazariyasi. Nutqiy manipulyatsiya nazariyasi. Manipulyatsiv strategiyalari. Adresat va adresant omillari. Kommunikatsiya tushunchasi va turlari. Kommunikativ strategiyalar va taktikalar. Kommunikativ baryerlar. Pragmatikt muvaffaqiyatsizliklar. Lisoniy shaxs tushunchasi va tarkibi. Lisoniy shaxsning pragmatik jihati. Diskursning pragmatik jihatlari.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику: учебник для вузов – 3-е изд. – М.: ЛКИ, 2007. – 360 с.
2. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.
3. Горбачевский А.А. Теория языка: вводный курс. – Москва: Флинта, 2016. – 282 с.
4. Захаров, В. П. Корпусная лингвистика: учебник для вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – 161 с.
5. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2008. – 271 б.
6. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры которые мы живем. Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А.Н.Баранова. Изд. 2-е. – М.: ЛКИ, 2008. – 256 с.
7. Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика. – М.: Восток-Запад, 2007. – 317 с.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2010. – 288 б.
10. Норман Б.Ю. Теория языка: вводный курс. – 5-е изд., стер. – Москва : Флинта, 2018. – 296 с.
11. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
12. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Тошкент: Фан, 2008.
13. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – Издание 5-е, исправленное. – М.: Аспект пресс, 2005. – 536 с.
14. Сапарова К.О. Методология научного исследования. – Т., 2020.
15. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
16. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
17. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.
18. Федотова Е.Л., Федотов А.А. Информационные технологии в науке и образовании. – М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – 336 с.  
<http://znanium.com/catalog.php?bookinfo=487293>
19. Хроленко А.Т. Теория языка : учебное пособие. – 4-е изд., стер. – Москва: Флинта, 2018. – 513 с.
20. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – 125 с.
21. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm. 2018.
22. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm. 2019.

Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm. 2016.

23. Austin J. How to Do Things with Words. — Oxford, 1962.

24. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – 374 p.

25. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We live by. 2-nd edition. – The University of Chicago Press, 2003. – 256 p.

26. Saparova Q.O., Minniqulov I.U. Lingvistik tahlil metodlari. – Toshkent, 2022.

Searle J. Speech Acts. — Cambridge, 1969.

27. Yo'ldoshev I., Muhammedova S., Sharipova O'., Madjidova R. Mutaxassislikka kirish. – Toshkent, 2020.

28. Yo'ldoshev I., Muhammedova S., Sharipova O'., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2023.